

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

**MUHANDIS-TEXNIKA FAKULTETI**

**QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASHTIRISH KAFEDRASI**

**ODILOV NURIDDIN NURMAT O'G'Lining**

5430100-Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish ta'lif yo'nalishi bo'yicha  
bakalavr darajasini olish uchun

**"TAKOMILLASHGAN CHIZEL PLUG YORDAMIDA LALMI YERLARNI  
EKISHGA TAYYORLASHNI MEXANIZATSİYALASH" mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**BMI rahbari:  
dots., S.J.Toshtemirov**

**"Himoyaga tavsiya etaman"  
Muhandis-texnika fakulteti  
Dekani \_\_\_\_\_ dots., M.N.Aliqulov  
“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2018 yil**

**QARSHI-2018 yil**

## K I R I S H

Jahonda har yili 13387,0 mln. hektar suvli va lalmi maydonlarda qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtirishda yuqori hosil olish uchun tuproq unumdonligini saqlagan holda unga ishlov berishning innovatsion texnologiyalari va zamonaviy texnika vositalarini tadbiq etish muhim o‘rin egallaydi [3].

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish qishloq xo‘jaligining o‘ta muhim vazifasi hisoblanadi [1-2]. Juhon qishloq xo‘jaligida, jumladan respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirishga jiddiy to‘siqlardan biri bu – tuproqlarning ma’lum darajada eroziyaga uchraganidir. Orol dengizining satxi kamayishi tufayli keyingi yillarda eroziya, ayniqsa shamol eroziyasi qishloq xo‘jaligiga, mos holda O‘zbekiston iqtisodiyotiga sezilarli darajada zarar yetkazmoqda.

Respublika bo‘yicha ekin maydonlarining 70 % dan ko‘progi u yoki bu darajada shamol va suv eroziyasiga uchragan. Ayniqsa O‘zbekistonning dasht zonalari yuqori darajada shamol eroziyasiga uchragan, ularga Farg‘ona, Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlari xududlari kiradi. Dashtlarning ko‘p qismi – taqirsimon, buz va dasht qum tuproqlari. Bu tuproqlar o‘zi kam hosildorli bo‘lib, tuproqning eroziyaga uchrashi esa ularning hosildorligini yanada kamaytirib yuboradi. Keltirilgan xududlarning ba’zi bir fermer ho‘jaliklarida qishloq xo‘jaligi ekinlarining xosildorligi juda past [4]. Kuchli shamol bo‘ladigan xududlarda ko‘p marta tuproqning shamoldan uchib ketishi (nurashi) uning mexanik tarkibini yengillashishiga va undagi gumus, azot va fosforining kamayishiga olib kelayapti.

Ma’lumki lalmikor dexqonchilik O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim o‘rinni egallaydi. Respublikada lalmikor dexqonchilikka yaroqli tuproqlar 2 mln 130 ming hektarni tashkil etadi. Shundan dehqonchilik qilinadigan lalmikor yerlar umu-

O‘zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana	Var.
------	-------	-----------	------	------	------

miy ekin maydonining 20 foizdan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Ishlov beriladigan lalmikor maydonlar 801,45 ming getktarni tashkil etib, asosiy dehqonchilik olib boriladigan maydonlar Qashqadaryo (308,5 ming ga), Jizzax (254,5 ming ga) va Samarqand (238,4 ming ga) viloyatlariga tug‘ri keladi. Lalmikor tuproqlarning buzilishini asosiy sabablaridan biri qo‘llanib kelayotgan yerga ishlov berish texnologiyasi va texnik quollaridir [4].

Xozirgi kunda lalmikor yerkarda tuproqqa ishlov berish qadimgi usul bilan, ya’ni pluglar bilan tuproq palaxsasini bir xil chuqurlikda ag‘darib haydab ishlov beriladi. Bunday usul bilan ishlov berilgan yerlar usti ochiq bo‘ladi va shu sababli suv va shamol eroziyasiga chalinadi. Bugungi kunga qadar lalmikor yerkarda ishlov berish uchun maxsus texnologiyalar ishlab chiqilmagan. Xattoki lalmikor tuproqlarning fizik–mexanik va texnologik xossalari, maydonlarning qiyaliklari shakli, uzunligi, joylashishi va qiyalik darajalari to‘g‘risida yetarli ma’lumotlar yo‘q. Dunyo amaliyotida eroziyaga qarshi tuproqqa ishlov berishning quollarini izlash bir nechta yo‘nalishlarda olib borilmoqda, ulardan eng istiqbollisi ag‘dargichli pluglarni ag‘dargichsiz quollar bilan almashtirish.

Xorijda eng ko‘p tarqalgan tuproqqa ag‘dargichsiz ishlov berish quroli bu chizel pluglardir. Ular tuproqda namni saqlashga va yig‘ilishiga imkon yaratadi, aeratsiya va infiltratsiya jarayonlarini yaxshilaydi, suv va shamol eroziyasi rivojlanishini bartaraf qiladi. Dala yuzasidagi o‘simliklar qoplamini shikastlanishi darajasini pasayishi va dala yuzasini yaxshi tekisligini ta’minlaydigan chizelli quollardan biri bu ko‘ndalang-tik tekislikda ish organlarining tutqichi qiya bulgan chizel plugdir.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida keltirilgan ma’lumotlardan foydalanib lalmi yerkarni ekishga tayyorlashdagi mavjud muammolarni bartaraf etishda bevosita foydalanish mumkin.

O‘zg	Varaq	Nº hujjat	Imzo	Sana	Var.

## UMUMIY QISM

### 1.1. Lalmikor yerlarda ishlov berishning innovatsion texnologiyalari

**Tuproqga ishlov bermasdan (nollik) texnologiyasini iqtisodiy samaradorligi.**

Lalmikor yerlarda tuproqga ishlov bermasdan va kam ishlov berish orqali qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish.



Bugungi kunda respublikamizning lalmi yerlarida boshoqli don ekinlari 300 ming gettardan ortiqroq maydonlarda ikki davrda - kuzda va bahorda ekiladi. Kuzgi davrda ekilgan don bahorgisiga qaraganda ko‘proq hosil beradi, shu boisdan donning 85-90 foizi kuzda ekiladi.

**Yerlarning degradatsiyasini asosiy sabablari:** degradatsiyaning asosiy omillari – yerga intensiv ekin ekish, yerlarning meleiorativ holatini o‘zgarishi, almashlab ekishga rioya qilmaslik. Tuproq muhofazalovchi texnologiyasini qo‘llash orqali qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirilganda tuproqqa ishlov berishni ancha kamayadi, almashlab ekishga, mulchalashga amal qilinadi, tuproq ustki qatlami himoyalanadi hamda mineral o‘g‘itlarni meyori kamayadi, organik va organomineral o‘g‘itlarni qo‘llash hisobiga tuproqning sifat ko‘rsatkichlari ancha yaxshilanadi.

**Ushbu texnologiyaning asosiy texnik funksiyalari:** tuproqga ishlov berish sonini ancha qisqartiradi, tuproqning ustki qatlaminini himoyalash-mulchalash va almashlab ekishga rioya qilish degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklaydi. Lalmikor dehqonchilikda ushbu texnologiyani qo‘llash orqali kuzgi bug‘doy va dukkakli ekinlar yetishtiriladi.

**Saqlovchi choralar:** Ushbu texnologiya suv, tuproq va energetik resurslarni muhofaza qiladi.

O‘zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana	Var.
------	-------	-----------	------	------	------

**Texnologiyani aniqlanishi:** resurs tejamkor texnologiya-yonilg‘i-energetik resurslarni kamaytirishga yo‘naltirilgan; texnologiya tuproq unumdorligini yaxshilash imkonini beradi (gumusni, tuproq mikroorganizmlarini, yomg‘ir chuvalchanglarini ko‘paytiradi, sho‘rlanishni kamaytiradi).

Taklif etilayotgan texnologiya fermer xo‘jaliklari daromadlarini ko‘paytirish va qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan.

**Aralashuv bosqichi:** yerlarni degradatsiyaga uchrashini oldini olish, gumus tarkibini oshirish, tuproq sho‘rlanishini, eroziyasini kamaytirish, tuproq namligini saqlash, mikroorganizmlar va chuvalchanglar miqdorini ko‘paytirish, tuproqdagi bioxilma-xillikni oshirish, karbonat angidrid gazlarini chiqishini kamaytirish, yonilg‘i moylash materiallari sarfini qisqartirish, fermer xo‘jaligi daromadini ko‘tarish.

**Yerlarning degradatsiyasini asosiy sabablari:** degradatsiyaning asosiy omillari – yerga intensiv ekin ekish, yerlarning meleorativ holatini o‘zgarishi, almashlab ekishga rioya qilmaslik. Tuproq muhofazalovchi texnologiyasini qo‘llash orqali qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirilganda tuproqqa ishlov berish ancha kamayadi, almashlab ekishga, mulchalashga amal qilinadi, tuproq ustki qatlami himoyalanadi hamda mineral o‘g‘itlarning meyori kamayadi, organik va organomineral o‘g‘itlarni qo‘llash hisobiga tuproqning sifat ko‘rsatkichlari ancha yaxshilanadi.

**Ushbu texnologiyaning asosiy texnik funksiyalari:** tuproqqa ishlov berish sonini ancha qisqartiradi, tuproqning ustki qatlamini himoyalash-mulchalash va almashlab ekishga rioya qilish, degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklaydi. Lalmikor dehqonchilikda ushbu texnologiyani qo‘llash orqali kuzgi bug‘doy va dukkakli ekinlar yetishtiriladi.

**Texnologiyani aniqlanishi:** resurstejamkor texnologiya-yonilg‘i-energetik resurslarni kamaytirishga yo‘naltirilgan, texnologiya tuproq unumdorligini yaxshilash imkonini beradi (gumusni, tuproq mikroorganizmlarini, yomg‘ir chuvalchanglarini ko‘paytiradi, sho‘rlanishni kamaytiradi).

						Var.
O‘zg	Varaq	Nº hujjat	Imzo	Sana		

**Saqlovchi choralar:** Ushbu texnologiya suv, tuproq va energetik resurslarni muhofaza qiladi.

**Antropogen muhit:**  
Yerdan foydalanuvchi: fermer xo‘jaligi  
Yerga egalik huquqi: uzoq muddatli ijara

**Texnologiyani aniqlanishi:** resurstejamkor texnologiya-yonilg‘i-energetik resurslarni kamaytirishga yo‘naltirilgan, texnologiya tuproq unumdonligini yaxshilash imkonini beradi (gumusni, tuproq mikroorganizmlarini, yomg‘ir chuvalchanglarini ko‘paytiradi, sho‘rlanishni kamaytiradi). Taklif etilayotgan texnologiya fermer xo‘jaliklari daromadlarini ko‘paytirish va qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan.

**Texnologiyaning qisqacha mazmuni.** Resurstejamkor texnologiyaning asosiy moxiyati – tuproqqa minimal ta’sir ko‘rsatish, doimiy o‘simlik qoplami yoki mulchalash orqali tuproq ustki qatlamini himoyalash va maqbul almashlab ekish hisoblanadi.

Resurs tejovchi texnologiyani qo‘llashdan oldin fermer xo‘jaliklari tanlanadigan maydonning tuproq tarkibi tafsilotlarini tahlil qilishlari kerak. Dala maydonini tayyorlashda yerning haydov osti qatlamini chuqur yumshatuvchi moslama bilan yumshatish lozim. Bu o‘simliklarning ildiz tizimini rivojlanishini yaxshilaydi va ozuqa elementlaridan foydalanishga imkon yaratadi. Tuproqning ustki qatlamini tekislash uchun lazerli tekislash tavsiya qilinadi, ya’ni dala maydonlarini tekislash va xaritalar tuzish uchun maxsus lazerli moslamalar qo‘llaniladi. G‘o‘za-g‘alla almashlab ekishda tuproqga ishlov berishning tayyorgarlik ishlarini o‘tkazgandan so‘ng tuproqning organik moddasini bir tekisda taqsimlanishi uchun kuzgi bug‘doy bilan boshlash taklif etiladi.

Texnologiyani boshlang‘ich bosqichida ekin ekish egatlab sug‘orishni hisobga olgan holda olib boriladi. Hosilni yig‘ib olgandan so‘ng tuproq qoplamini o‘simlik qoldiqlari bilan ta’minlash uchun biomassani dalada qoldirish kerak. Ekin ekish ishlov berilmagan tuproqlarning pushtasiga maxsus seyalkalar yordamida o‘tkaziladi.

O‘zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana		Var.
------	-------	-----------	------	------	--	------

*An'anaviy usuldan resurstejamkor texnologiyaga sekin-asta o'tishni yerdan foydalanuvchilar – fermerlarga dala ish jarayonlarini ketma-ketligini dala sharoitida ko'rsatish uchun seminarlar va dala xizmat safarlarini tashkil qilish taklif etiladi. Bu texnologiyani targ'ib etishning yana bir elementi – fermerlar uchun o'quv kurslarini tashkil qilish hisoblanadi.*

Hozirgi kunda respublikada lalmikor yerlarda donli-dukakkakli ekinlar 300 ming gektardan ko‘proq maydonda ikki muddatda: kuz va bahorda ekiladi. Kuzda ekilgan dondan baxordagiga qaraganda ko‘proq hosil olinad, shuning uchun 85-90 % donni kuzda ekiladi.

Tuproq muxofazalovchi, qurg‘ochil sharoitda, namni saqlaydigan texnologiyalardan biri – bizning dehqonchilik uchun yangi, lekin butun dunyoda keng qo'llanilayotgan, tuprqga ishlov bermasdan to‘g‘ridan - to‘g‘ri ekinlarni ekishdir. Bu texnologiya resurstejamkor, tuproq unumdorligini oshiruvchi hisoblanadi.

Bunday usul bilan ekinlarni ekish, ayniqsa bug‘doy, mosh, tretikale, jo‘xori, kungaboqar, soya, kunjut va boshqa shu kabilarni ekish samarali ekish samarali bo‘lib, ular yaxshi o‘sib, rivojlanadi.

Lalmikor va degradatsiyaga uchragan tuproqlar uchun quyidagi agrotexnologiya taklif etiladi: unumdorligi past yerlarda (bonitet bali 40 dan past) dala sharoitida respublikada mavjud ikkilamchi resurslardan foydalanish (past navli fosforitlar, noan'anaviy agrorudalar, har xil chiqindilar); fermer xo‘jaligi yerlarida biotexnologik usullarni tadbiq etish orqali yangi organomineral o‘g‘itlar olish. Organomineral o‘g‘itlar go‘ng va past navli toshko‘mir fosforitlari asosida 4 oy davomida 9:1 nisbatda kompostlash yo‘li bilan tayyorlanadi. Boshqa organomineral o‘g‘itlar Angren past navli ko‘miri va Markaziy Qizilqum fosforit uni asosida tayyorlanadi. Ushbu o‘g‘itlar fermer xo‘jaligi sharoitida tajribada sinalgan. Taklif etilayotgan texnologiyani qo'llash resurstejamkor hisoblanadi va ekologik muammolarni hal qiladi. Bu texnologiyani tadbiq etganda tuproq unumdorligi tiklanadi va yaxshilanadi, yildan yilga undagi organik modda va oziqa

						Var.
O‘zg	Varaq	Nº hujjat	Imzo	Sana		

moddalarining miqdori ortadi, mineral o‘g‘itlarga ketadigan xarajatlarni 30-40% va undan ko‘proq, organik o‘g‘it sarfini 3-4 marta kamaytirish imkonini beradi. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, paxta xom ashvosidan 3-5s/ga, kuzgi bug‘doydan 10-12 s/ga qo‘sishimcha hosil olingan.

### **Ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy foyda, %:**

Hosildorlik – 10% gacha ortadi, 20% gacha sug‘orish suviga bo‘lgan talab kamayadi.

Fermer xo‘jaliklari daromadi – 30% gacha oshadi, xarajatlar – 20% kamayadi.

Ishchi kuchi – 50% gacha kamayadi.

Boshqalar – yonilg‘i moylash materiallari – 50% va urug‘lik – 30% tejaladi.

### **Ekologik samara:**

Tuproq namligini ortishi – 40% gacha;

Parlanishni kamayishi – 30% gacha;

Tuproq ustki qismini yaxshilanishi – 20% gacha;

Tuproq yuvilishlarini kamayishi – 10% gacha; 160

Biomassani ko‘payishi – 15-20% gacha

Tuproq organik moddasini ko‘payishi – 15-20% gacha

Qatqaloq hosil bo‘lishini kamayishi – 29% gacha

Tuproq zichligini kamayishi – 20-25% gacha.

Lalmi yerlarda bug‘doy yetishtirish bo‘yicha texnologik operatsiyalarni bajarishga sarflangan mehnat xarajatlari tuproqqa an‘anaviy va nollik ishlov berish uchun tuzilgan texnologik xarita asosida hisoblab chiqildi.

1ga ekin maydoniga to‘g‘ri keladigan mehnat xarajatlari nollik texnologiyada 0.18 kishi/soatni, an‘anaviy texnologiyada 0.24 kishi/soatni tashkil qildi. 1tonna mahsulotga mehnat xarajatlari nollik texnologiyada an‘anaviy texnologiyaga nisbatan ancha kamroq bo‘lib, mos holda 0.11 va 0.23 kishi/soatga teng bo‘ldi.

Nollik texnologiyada yonilg‘i xarajatlari 37,02 l/ga ni tashkil etgan holda an‘anaviy texnologiyaga nisbatan 2.3 baravar kam bo‘ldi, ya’ni an‘anaviy texnologiyada 84.12 l/ga bo‘ldi.

						Var.
O‘zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana		

Nollik texnologiya mehnat unumdorligining yuqori ekanligi bilan tavsiflanadi. Ushbu ko'rsatkich kuzgi bug'doyni yetishtirishning an'anaviy texnologiyasiga nisbatan 2 barobar yuqori, shuningdek energiya sig'imi ham 3 barobar pastdir. [5]

Mavjud hududiy sharoitlarda tuproqqa nollik ishlov berishga asoslangan resurstejamkor texnologiyadan foydalanish samaraliroq bo'lib hisoblanadi.



## 1.2.Tuproqqa ishlov berishning o'ziga xos xususiyati

Hozirgi vaqtida tuproqqa asosiy ishlov berishning quyidagi usullari qo'llanilmokda: pluglar bilan tuproq palaxsasini ag'darib ag'dargichli shudgorlash, tuproq palaxsasini ag'darmasdan ag'dargichsiz yumshatish va frezerli ishlov berish.

Tuproqqa asosiy ishlov berishning eng qadimiy usuli har xil konstruksiyadagi pluglar bilan tuproq palaxsalarini ag'darib haydashdan iborat.

Tuproq palaxsalarini ag'darib ag'dargichli ishlov berishning eng muhim afzalliklari: organik o'g'itlar va o'simlik qoldiqlarini chuqur ko'milishi, begona o'tlarga qarshi samarali kurashish, tuproqning yaxshi yumshatilishi. Ag'dargichli ishlov berish to'g'ri qo'llanilganda tuproqning unumdorligi oshadi va ekinning hosildorligi ko'payadi.

Uning kamchiliklariga quyidagilar kiradi: yuqori energiya sarfi, shamol eroziyasiga uchraydigan tuproqlarda qo'llanilishi maqsadga muvofiq emasligi va plug tayanchlari ta'sirida qattiq qatlam (plug tovoni) hosil bo'lishi mumkinligi.

						Var.
O'zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana		

Tuproq palaxsalarini ag‘darib haydashning yana bir kamchiligi palaxsa ag‘darilishi natijasida shudgorning ustki qatlami «yalong‘ochlanib» qoladi. Bu esa namgarchilik yetarli bo‘lmagan joylarda tuproqda shamol va suv eroziyasining kuchayishiga olib keladi [5].

Eroziyaning oldini olish va tuproq unumdorligini saqlab qolish maqsadida XIX va XX asrlardan boshlab eroziya kuchli xududlarda tuproq palaxsasini ag‘darmasdan ag‘dargichsiz ishlov berila boshlandi. Bunda 65-85% o‘simlik qoldiqlari dala yuzasida qoladi hamda tuproqni shamol va suv eroziyasiдан saqlaydi. Yumshatilgan tuproq qatlami o‘zida namni yaxshi saqlaydi .

Tuproqqa ag‘dargichsiz asosiy ishlov berishning bu usuli AQSH, Kanada, Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi va boshqa ko‘pgina mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo‘llanilmoqda.

Hozirgi vaqtida tuproqqa ag‘dargichsiz ishlov berishning yangi minimal ishlov berish yo‘nalishi keng tarqalmoqda. Bu yo‘nalishning asosiy mazmuni tuproqqa ishlov berishlar sonini imkonimiz boricha kamaytirish, ya’ni minimallashtirishdir. Chunki qo‘llanilayotgan agrotexnika qoidalariga asosan tuproqqa ishlov berishlar soni ko‘pincha keragidan ortiq bo‘lib, tuproq holatini yomonlashuviga olib kelmoqda. Shuning uchun «minimal ishlov» jarayonlarni bir o‘tishda bajarib, kimyoviy moddalarni qo‘llash bilan tuproqqa mexanik ta’sirlar sonini minimal darajaga qadar kamaytirishdir. Natijada ishlab chiqarish xarajatlari 3-4 barobarga kamayishi bilan tuproq eroziyasi oldi olinadi.

Rivojlangan qishloq xo‘jaligiga ega bo‘lgan mamlakatlarda tuproqqa asosiy ishlov berishdan butunlay voz kechilmoqda, ya’ni shudgorlash yoki yumshatish o‘tkazilmasdan ekinlar hosili yig‘ishtirib olingan dalalarga maxsus qurollar yordamida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekilmoqda. Asosiy ishlov o‘tkazilmaganligi sababli bu usulga nol ishlov berish (nulevaya obrabotka) deb xam yuritiladi. Bu usulda texnologik jarayonlarning qisqarganligi sababli 80% ga qadar yonilg‘i va 60% ishchi kuchi tejab qolinishi mumkin.

						Var.
O‘zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana		

Hozirgi paytda AQShda 50% ekiladigan dalalarda minimal ishlov berish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish usullari qo‘llaniladi.

Respublikamizda ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish usuli (nol ishlov berish) oxirgi yillarda qo‘llanila boshlandi. Paxta dalalariga ishlov bermasdan donli ekinlarni ekish katta iqtisodiy samara bermoqda. Ammo, bu usulning qanday sharoitda qo‘llanilishi yoki agrotexnikasi bizning sharoitimiz uchun hozircha asoslanmagan. Shuning uchun tuproq palaxsasini ag‘darib shudgorlash eng keng tarqalgan usul bo‘lib qolmoqda.

Ag‘dargichsiz yerga ishlov berish kultivator-tekislagichlar, tekislagich-chuqr yumshatgichlar, chizelli pluglar va plug-yumshatgichlar bilan amalga oshiriladi. Ushbu ishchi organlar bilan yerga ag‘dargichsiz ishlov berilganda 75-85% poya dala yuzasida qoladi. Dala yuzasida saqlanib qolingga poyalar tuproq eroziyasini oldini oladi va uning namligini saqlashga xizmat qiladi. Bu usul bilan tuproqqa ishlov berilganda kam energiya sarf bo‘lad [6,7,8].

Tuproqqa ag‘dargichsiz asosiy ishlov berishda bir qancha muammolar ham vujudga keladi. Masalan, asosiy o‘g‘itlash muammolari yechimsiz qoladi. Bundan tashqari, begona o‘tlar bilan kurashish samarasiz bo‘lib, dala yuzasida qolgan o‘simgilik qoldiqlari kasallik va zararkunandalarning tarqalishiga olib keladi.

Har bir agro usul, shu jumladan tuproqqa ishlov berish ikki tomonlama ahamiyatga ega: birinchi tomondan - u qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini oshiradigan omil, ikkinchi tomondan - uni bajarish uchun harajat ketadi.

Shuning uchun ham tuproqqa ishlov berish tizimini, shu jumladan texnologiyasini va texnik qurollari tanlanganda ushbu ikki omilni albatta e’tiborga olish kerak.

### **1.3.Lalmi yerlar tuproqlarini himoyalab ishlov berish usullari va mashinalari**

Shamol, suv oqimi va qishloq xo‘jaligi mashinalarining mexanik ta’sirida tuproqning hosildor zarrachalarini nurashi va yuvilishi tuproq eroziyasi deb ataladi.

						Var.
O’zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana		

Barcha tuproqlar yuqori yoki past darajada eroziyaga chalingan. Demak, har qanday tuproqqa ishlov berish mashinasi u yoki bu darajada eroziyaga qarshi bo‘lishi kerak. Ammo bajaradigan operatsiyalarining bosh vazifasi tuproq eroziyasiga qarshi kurashish bo‘lgan mashinalargina eroziyaga qarshi mashinalar deb hisoblanadi.

O‘zbekiston ekin maydonlarining 70% dan k<sup>ech</sup>prog‘i shamol va suv eroziyasiga uchragan. Ayniqsa, dasht zonalari yuqori darajada shamol eroziyasiga uchragan. Eroziyani oldini olishning asosiy omillaridan biri tuproqqa ishlov berishning maxsus texnologiyalari va texnik vositalarini keng qo‘llashdir.

### **1.3.1.Suv eroziyasiga qarshi kurash mashinalari**

Nishabliklarning tuprog‘i suv eroziyasiga chalingan. Ularning tuproqlariga ishlov berish usuli nishablikning tikligiga bog‘liq. Nishablikning tikligi 6° gacha bo‘lganda poyalarni saqlab yoki ularni pluglar bilan to‘liq ko‘mmasdan ishlov berish hamda oddiy shudgorda chuqurchalar hosil qilish tavsija qilinadi.

Nishablikning tikligi 6° dan 13° gacha bo‘lganda suv yig‘adigan ariqlar va organik moddalar (go‘ng va boshqa) bilan to‘ldirilgan tirqishlar hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Nishablikning tikligi 13° dan katta bo‘lganda terraserlar hosil qilinadi. Bu plantaj pluglar va maxsus mashinalar – terraserlar bilan amalga oshiriladi.

Nishabliklarda sodir bo‘ladigan suv eroziyasiga qarshi kurash suvni to‘xtashini ta’minlaydigan tashkiliy va agrotexnik tadbirlar tizimidan iborat. Unga quyidagilar kiradi: tuproqqa o‘z vaqtida ishlov berish, shudgorlash bilan birga shudgor tubini yumshatish, shudgorlash bilan bir vaqtida shudgor yuzasida suv to‘sgichlar va uyumlar hosil qilish, chuqurliklar va uzuq egatlar hosil qilish va hokazo.

Nishabliklarni shunday shudgorlash kerakki, bunda egatlar nishablikka ko‘ndalang bo‘lib, gorizontallar bo‘yicha o‘tishi kerak. Haydov agregati har bir o‘tishda nishablik bo‘yicha ko‘tarilmasdan va tushmasdan bir xil balandlikda turishi kerak. Nishablik tikligi 3° dan katta bo‘lganda dalalarni gorizontallar bo‘yicha

						Var.
O‘zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana		

shudgorlash bo‘ylama shudgorlashga nisbatan tuproqni yuvilishini 2 marta kamaytiradi, suv zahirasini ko‘paytiradi va hosildorlikni oshiradi. Nishabliklarni shudgorlash uchun tekis ishlov beradigan pluglarni qo‘llash maqsadga muvofiq. Tikligi 20<sup>0</sup> gacha bo‘lgan nishabliklarga palaxsani nishablik bo‘yicha pastga ag‘darib uyumlar va ariqlarsiz ishlov berilishi kerak.

Chuqur shudgorlash tuproqni suv singdirish qobiliyatini oshiradi va mos holda yog‘in suvlarini to‘xtatishda yaxshi samara beradi. Chuqur shudgorlash chuqur yumshatgichlar bilan jihozlangan ag‘dargichli pluglar va chizel pluglar bilan amalga oshiriladi.

4<sup>0</sup> gacha bo‘lgan nishabliklarni shudgorlash uchun kombinatsiyalashgan (pog‘onasimon) shudgorlash xam qo‘llaniladi. Buning uchun plugda ag‘dargichli va ag‘dargichsiz korpuslarning har xil birikmasi qo‘llaniladi yoki ag‘dargichi uzun bo‘lgan, standart bo‘limgan bitta korpus o‘rnataladi, u nishablikka ko‘ndalang bo‘lgan tuproq uyumini hosil qiladi. Uyumlar suvning oqishini to‘xtatadi.

Nishabliklarga ishlov beradigan mashinalarning turi eroziyaga qarshi ishlov berish usuliga bog‘liq.

**Chuqurcha hosil qilgich** lushchilnik asosida qilingan bo‘lib shudgorda va shudgor qilib qo‘yilgan dalada chuqurchalar hosil qilish uchun mo‘ljallangan. U seksiya valida ekssentrik o‘rnatilgan va bir-biriga nisbatan 180<sup>0</sup> burilgan juft disklar (1.1-rasm) ko‘rinishida bo‘ladi.

Batareyadagi botiq disklarning diametri 450 mm bo‘lib, ular 30<sup>0</sup> hujum burchagi ostida o‘rnataladi. Seksiyadagi juft disklar navbatma-navbat tuproqqa botib, chuqurligi bo‘yicha oval va yo‘rishi bo‘yicha cho‘ziq chuqurchalar hosil qiladi. Chuqurchaning o‘rtacha sig‘imi 20...25 l, 1 gektarda ularning umumiyl soni 12...14 mingta.

Shudgorlash bilan bir vaqtda chuqurchalar hosil qilinganda plug botiq diskli batareya bilan jihozlanadi.

Suv eroziyasidan tashqari shamol eroziyasiga ham chalingan tuproqlarda botiq disklar o‘rnida tekis disklar qo‘llaniladi. Ular palaxsalarni aylantirmay tuproqni suradi va poyalarni kam shikastlantiradi.


O‘zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana	Var.

Poyalar tuproqni shamol ta'sirida uchib ketishidan saqlaydi va namni saqlanishiga imkon yaratadi.

**Tirqish ochgichlar** nishabliklarda tirqish hosil qilish uchun mo'ljallangan. Ularning ish organlari pichoqlar (**1.1 a -rasm**).

**Fason yuzали g'altaklar** nishabliklarda har xil yo'nalishda do'nglik va chuqurliklar hosil qilish uchun qo'llaniladi.

**Uzuq-uzuq egatlar hosil qilish uchun moslamalar** (**1.1 v-rasm**) pluglar va kultivatorlarda o'rnatiladi.



### **1.1-rasm. Suv eroziyasiga qarshi kurash mashinalarining ishchi organlari.**

a – chuqur hosil qilgichning eksentrik disklari; b – tirqish ochgich pichog'i; v – uzuq ariq ochgich rotor; g – uzuq ariq ochgich moslamali plug; 1 – kalta ag'dargichli korpus; 2 – moslama tizgini; 3 – parrak; 4 – tayanch dastak; 5 – prujinali shtanga.

Moslamaning ishchi organi parrak (**1.1 g-rasm**) bo'lib, u uch (pluglarda) va to'rt kurakli (kultivatorlarda) bo'ladi. Parrak mashina bilan birga oldinga harakatlanganda davriy ravishda, ba'zan uning aylanishi sekinlashadi va tuproqqa botgan kuragi bilan ariqcha ochadi, ba'zan uning kuragi tuproqdan bo'shaydi va

O'zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana	Var.
------	-------	-----------	------	------	------

natijada nishabliklarda yog‘in suvlarni to‘xtatish uchun uzuq-uzuq egatlar hosil bo‘ladi.

### **1.3.2. Shamol eroziyaga qarshi tuproqqa ishlov berish mashinalari**

Zamonaviy shamol eroziyasiga qarshi tuproqqa ishlov berish mashinalari quyidagicha tavsiflanadi: vazifasi bo‘yicha ekish oldidan ang‘izga va shudgorlangan dalalarga chuqur va sayoz asosiy ishlov berish mashinalari; ishchi organlarining turi bo‘yicha tekis kesgich, shtangali, ninasimon va boshqa; ishlov berish chuqurligi bo‘yicha chuqur yumshatadigan va tuproqqa yuza ishlov beradigan; murakkabligi bo‘yicha oddiy va ishchi organlari majburiy harakatga keltiriladigan murakkab; bajaradigan operatsiyalarni soni bo‘yicha bitta operatsiyani bajaradigan, ikki va undan ko‘p operatsiyalarni bajaradigan (ish organlari almashinadigan), bir o‘tishda bir nechta operatsiyalarni bajaradigan mujassamlashgan; traktorga bog‘lanish usuli bo‘yicha tirkama va osma.

**Agrotexnik talablar.** Eroziyaga qarshi tuproqqa ishlov berish mashinalariga quyidagi agrotexnik talablar qo‘yiladi:

- mashinalar belgilangan chuqurlikda ishlov berilgan tuproq qatlamini yumshatishi lozim. Bunda sayoz yumshatilganda ( $16\text{ sm}$  gacha) tuproq  $3 - 25\text{ mm}$  kattalikda, chuqur yumshatilganda ( $30\text{ sm}$  gacha)  $3 - 50\text{ mm}$  kattalikdagi fraksiyalarga uvalash maqsadga muvofiq.  $0 - 5\text{ sm}$  qatlamda diametri bo‘yicha o‘lchami  $1\text{ mm}$  gacha bo‘lgan erozion xavfli tuproq fraksiyalari ko‘paymasligi kerak, tuproq yuzasida esa dastlabki miqdoriga nisbatan  $60 - 90\%$  poyalar saqlanib qolishi kerak;

- mashina o‘tgandan so‘ng begona o‘tlarning tomiri to‘liq kesilgan bo‘lishi va ish jarayonida uning ishchi organlariga o‘simlik qoldiqlari tiqilib qolmasligi kerak;

- mashina dala mikrorelyefiga yaxshi moslashishi kerak va chuqurligi bo‘yicha barqaror ishlashi lozim. O‘rtacha yumshatish chuqurligidan sayoz ishlov berilganda  $\pm 10\%$  va chuqur ishlov berilganda  $\pm 5\%$  chetlashish ruxsat etiladi. Shudgor

						Var.
O‘zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana		

yuzasining o‘rkachligi sayoz ishlov berilganda 3 sm dan, chuqur ishlov berilganda 7 sm dan katta bo‘lmasligi kerak [9].

#### **1.4. Tuproqqa ag‘dargichsiz io‘lov beradigan chizell pluglar**

Rossiyada tuproqqa chuqur chizelli ishlov berish uchun tavsiya qilingan chizelli pluglar ikkiga bo‘linadi: umumiy ishlarga mo‘ljallangan va toshlar bilan ifloslangan tuproqqa ishlov beradigan.

Rossiyada 5 klass traktoriga PCH-4,5 va 3 klass traktoriga PCH-2,5 rusumli chizelli pluglar ishlab chiqilgan va ular sanoat tomonidan chiqarilayapti. Bu pluglar umumiy ishlarga mo‘ljallangan chuqur yumshatkichlar bo‘lib, kuyidagi ishlarni bajarishga mo‘ljallangan: ag‘dargichli va ag‘dargichsiz ishlov berilgan tuproqlarga haydov osti gorizontini chuqurlashtirish bilan ishlov berish; kuzgi va bahorgi shudgorlash o‘rniga ag‘dargichsiz ishlov berish; qiyaliklar, dalalarni chuqur yumshatish. PCH-4,5 chizelli plugi rama, ishchi organlar, tayanch g‘ildiraklar, osma, ishlov chuqurligini sozlash mexanizmidan tashkil topgan.

Umumiy ishlarga mo‘ljallangan chizelli pluglar PCH-4,5, PCH-2,5 va toshlar bilan ifloslangan tuproqlarga ishlov berish uchun mo‘ljallangan pluglar PCHK-4,5 va PCHK-2,5 ikki turdagи almashinadigan panjalar bilan jihozlangan; o‘qyoysimon tekis keskichlar va iskanasimon yumshatkichlar.

Umumiy ishlarga mo‘ljallangan chizelli pluglarning ish organlari ishlov chuqurligi tuproq qattiqligiga bog‘liq ravishda ramaga shunday o‘rnataladiki, bunda qamrash kengligi bo‘yicha palaxsaga tuliq kesilmaydi. Tuproqqa 20-30 sm chuqurlikda ishlov berilganda yumshatkich panjali ish organlar izlari orasidagi tavsiya qilingan masofa 400 mm, ishlov chuqurligi 30 dan 45 smgacha bo‘lganda – 500 mm. O‘qyoysimon panjalar tuproqqa 30 sm chuqurlikkacha ishlov berish uchun qo‘llaniladi, bunda ishlar orasi 500 mm.


Rossiya olimlari tomonidan PRPV-5-40, PRPV-8-50 (1.2-rasm) va PRPV-4-50 plug yumshatkichlari yaratilgan va ular GSKTB PO «OZOR» tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Bu yumshatkichlar ag‘dargichsiz va ag‘dargichli fonlar bo‘yicha shudgor gorizontini chuqurlashtirish, toshlar bilan ifloslanmagan xar xil mexanik

O‘zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana	Var.

tarkibdagi solishtirma qarshiligi 0,1 MPa gacha qattiqligi 5,0 MPa gacha va namlik 30% gacha bo‘lgan tuproqlarga ag‘dargichsiz ishlov berish uchun mo‘ljallangan.

Bu plug-yumshatkichning har biri rama, osma qurilma, chuqurlikni sozlaydigan osma qurilma va yumshatkich turidagi ish organlar, har bir ish organi oldin o‘rnatilgan taram-taramli, diskli pichoqdan iborat.

Shunday qilib, qiya tutqichli ish organli ko‘p korpusli ag‘dargichsiz tuproqqa ishlov beradigan qurollar uchun ko‘p har xil sxemalardan eng maqbul bo‘ladiganlari plugsimon, seksiyali yoki o‘qsimon sxemalardir. Bu sxemalardan xar qanday birini tuproq-iqlim sharoitni hisobga olmasdan qo‘llash yumshatgichning ish ko‘rsatgichlarini yomonlashtiradi.



**1.2-rasm.** 8 korpusli PRPV-8-50 plug-yumshatkich

O‘zbekiston Respublikasining №4410 dastlabki patenti [10] bo‘yicha tuproqqa ishlov berish agregati (**1.3-rasm**) harakatlantirgichlari va osma mexanizmi bo‘lgan tortgich vosita va tuproqqa ishlov beruvchi osma mexanizmga bog‘langan qurol va tayanch g‘ildiraklari va ishchi organlari bo‘lgan rama bilan ta’minlangan bo‘lib, ular harakat yo‘nalishiga ko‘ndalang holda qatorlab ustunning ko‘ndalang-tik tekisligiga qiyalab o‘rnatilgan. Qiyaligi qarama-qarshi ustunlari bo‘lgan birinchi qatorning ishchi organlari tortgich vositaning har bir harakatlantirgichini ko‘ndalang-tik tekisligiga nisbatan ko‘ndalang va simmetrik joylashtirilgan.



O‘zg	Varaq	№ hujjat	Imzo	Sana	Var.

Birinchi qator ishchi organlarini qiyaligi harakatlantirgich o‘qiga qaratilgan. Boshqa qatordagi ishchi organlari bir-biriga nisbatan ikkita pona hosil qilib, surilgan holda joylashtirilgan, bunda ponalar tepasi harakatlantirgichga qaratilgan. Agregat ustunlari tik bo‘lgan yumshatgichlar bilan ta’minlangan, ular tortgich vositaning harakatlantirgichlarini yon boshiga chetki orqa ishchi organlarining qiya ustunlarini tik qismi bilan bir ko‘ndalang-tik tekislikda joylashtirilgan.

Tuproqqa ishlov berish agregati (**1.4-rasm**) harakatlantirgichli va osgich mexanizmli tortqi vositasidan va osgich mexanizmiga ulangan yerga ishlov beruvchi quroldan, rama ko‘rinishida tayyorlangan tayanch g‘ildiraklaridan va ko‘ndalang-vertikal tekislikda nishab holdagi ustunli yumshatish element-lariga ega bo‘lgan ishchi organidan iborat. Ishchi organlari agregat harakat-lanish yo‘nalishiga ochiq holda, burchak ostida, gorizontal to‘slnlarga ikkita seksiyali qilib mahkamlangan. Ishchi organining ustunlari tortqi vositasining ko‘ndalang o‘qiga engashgan. Ishchi organning yumshatish elementi har bir harakatlantirgichdan so‘ng, uning simmetriya o‘qi bo‘ylab o‘rnatilgan.



QarMII olimlari tomonidan shamol eroziyasiga qarshi tuproqqa ishlov berish texnologiyasi (**1.4-rasm**) va uni amalga oshiradigan plug-yumshatkich ishlab chiqildi. Plug-yumshatkichning konstruktiv sxemasi 22-rasmda keltirilgan. Uning asosiy ishchi organlari Qarshi mexanika tajriba- ta’mirlash zavodida yasaldi. Nazariy va eksperimental tadqiqot-larga ko‘ra, plug-yumshatkichning maqbul parametrлari qo‘yidagicha: ishchi organlari qator oralari kengligi 0,28...0,40 m; bo‘ylama masofasi 0,60...0,70 m; ag‘dargichsiz qiya tutqichli ishchi organning maqbul parametrлari esa quyidagicha: iskanasi kengligi 0,065...0,075 m; iskanan-ning uvalash burchagi  $20\ldots25^{\circ}$ , tutqichning ko‘ngdalang-vertikal tekislikda-gi qiyalik burchagi  $451^{\circ}$ , bo‘ylama-vertikal tekislikdagi qiyalik burchagi  $20^{\circ}$  (**22 - rasm**).

<i>O‘zg</i>	<i>Varaq</i>	<i>Nº hujjat</i>	<i>Imzo</i>	<i>Sana</i>	<i>Var.</i>




**3-rasm.** Tuproqqa ag‘dargichsiz ishlov berish agregatni

O‘zg	Varaq	Nº hujjat	Imzo	Sana	Var.




1.4-rasm. Tuproqqa ishlov berish agregati

O'zg	Varaq	Nº hujjat	Imzo	Sana		Var.
------	-------	-----------	------	------	--	------



1.5-rasm. Eroziyaga qarshi tuproqqa ishlov berish



1.6-rasm. Plug-yumshatgichning konstruktiv sxemasi

Plug-yumshatkich (1.6-rasm) ning xo‘jalik sinovlari o‘tkazildi. Ishlab chiqilgan texnologiya va plug-yumshatkichni qo’llash tuproqni shamol eroziyasidan ximoya qiladi, ishlov berishdagi energiya sarfini 16-18% ga va yoqilg‘i-moylash materiallarini 17-19% ga kamaytiradi, namlikni to‘planishi va saqlanishini yaxshilaydi, tuproq strukturasini buzilishini oldini oladi, ish unumdorligi 12-17% ga oshadi hamda yetishtiriladigan mahsulot birligi xarajatlari kamayadi.

O‘zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana	Var.
------	-------	-----------	------	------	------

## 2. YARATUVCHILIK QISMI

### 2.1. Chizel plug ishchi organi qiya tuqich turini tanlash

Qiya tutqichli yumshatkich bo'yicha birinchi muallifning guvohnomasi 1921 yilda Chexoslovakiyada berilgan edi. Bu ishchi organ «plug toponi»ni buzish va shudgor tubini yumshatish uchun mo'ljallangan bo'lib, ular asosiy korpus tutqichiga yoki plug ramasiga korpusdan keyin o'rnatilgan.

Hozirgi paytda Fransiyaning “Huard” firmasi ishlab chiqarayotgan pluglarda vertikal to'g'ri chiziqqa nisbatan o'tkir burchak ostida o'tnatilgan qiya tutqichli yumshatkichlar o'rnatilmoqda. Firma mutaxassislarining fikricha, tutqichning ko'ndalang-vertikal tekislikdagi optimal qiyalik burchagi  $45^0$  ga teng.

Angliyaning «Dowdeswell Engineering CO.» firmasi tutqichi vertikal va qiya qismlardan iborat shudgor tubini yumshatgichni ishlab chiqarmoqda. Tutqichning qiya qismi vertikal qismga nisbatan  $45-60^0$  burchak ostida bajarilgan. Yumshatgich plugning asosiy korpusiga o'rnatilishi yoki dala taxtasi bilan birga bajarilishi mumkin. Yumshatkichning 12-15 sm chuqurlikka o'rnatilishi korpus qamrash kengligicha joyni to'lig'icha yumshatish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki qiya tutqichli yumshatkichlar vertikal tutqichli yumshatgichlarga nisbatan bir qancha afzallikkarga ega. Tuproq palaxsasini o'z o'mniga ag'daruvchi pluglarda qiya tutqichli yumshatkichlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Agar vertikal tutqichli yumshatgich o'rnatilsa, uning tutqichi tuproq palaxsasini kesadi, tuproq tutqich oldiga yig'ilib qoladi va uni ag'darish jarayoni buziladi. Qiya tutqichli yumshatgich o'matilganda esa tutqichning vertikal qismi palaxsaning ag'darilishi zonasidan tashqarida joylashadi va palaxsaning ag'darilish jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatmaydi. Bunda tutqichning egilishi joyini tuproq qatlami ichida joylashadigan qilib yoki tuproq qatlamanidan tashqarida joylashadigan qilib bajarish mumkin. Birinchi holatda vertikal tutqich shudgor tubi tuprog'iga ta'siri natijasida uning oldida tuproq uyumchasi hosil bo'ladi. Bu esa palaxsani o'z o'rni tomonga surishga halaqit berishi mumkin. Ikkinci holatda esa tutqichning vertikal qismining

O'zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana	Var.


tuproqqa ta'siri kamroq bo'ladi. Uning qiya qismi panjaning tuproqqa ta'siri natijasida hosil bo'lgan tuproqdagi deformatsiyalangan zona (yoriqlar) bo'ylab harakat qiladi. Natijada shudgor tubida tuproq uyumchalari deyarli hosil bo'lmaydi, palaxsaning ag'darilishi jarayoni uchun qulay sharoit yaratiladi.

Shunday qilib kombinatsiyalashgan agregatlarda an'anaviy vertikal tutqichli yumshatgichlarning qo'llanilishi texnologik jarayonning buzilishiga olib keladi. Bu agregatlarda qiya tutqichli yumshatgichlarning qo'llanilishi barqaror texnologik jarayonni ta'minlaydi.

Ushbu gepotezaga asosan mualliflar tomonidan kombinatsiyalashgan agregatlar uchun qiya tutqichli yumshatgichlar ishlab chiqildi (2.1-rasm). Yumshatgich ko'ndalang-vertikal tekislikda  $\beta_{\text{non}}$  burchak ostida qiya qilib bajarilgan tutqich 1, tutqich pichog'i 2, yumshatuvchi panja 3, taglik (bashmak) 4 lardan iborat.

Ish jarayonida panja-3 shudgor tubi tuproq qatlamiga kirib, undan palaxsa ajratadi. Bunda tuproqdagi panja ta'siridagi buzilishlar panjaga nisbatan ko'ndalang-vertikal tekislikda  $\beta$  burchak ostida tarqaladi. Bu burchakning qiymati tuproqning fizik-mexanik xossalariiga, namlik darajasiga bog'liq bo'lib, ko'p hollarda 40-45° orasida bo'ladi. Shu buzilishlar zonasiga tutqich to'g'ri kelsa unga tushadigan qarshilik kuchi sezilarli darajada kamayadi. Shuning uchun tutqichning qiyalik burchagini ko'p hollarda 45° ga teng qilib yasaladi. Panja tomonidan ajratilgan palaxsa panja bo'ylab ko'tarilishi natijasida palaxsa bilan tuproq massivi orasida yoriq hosil bo'ladi. Shu payt qiya tutqich 1 hosil bo'lgan yoriqqa kirib palaxsaga yon tomondan ta'sir eta boshlaydi. Palaxsaga tutqich 1 va panja 3 ta'sirida unda bir vaqtning o'zida ko'ndalang va bo'ylama tekisliklarda siqilish, egilishi va cho'zilishi deformatsiyalari sodir bo'ladi, palaxsa intensiv ravishda maydalanadi va panjadan o'tib inersion va gravitatsion kuchlar ta'sirida o'z o'rniga yotqiziladi.


						Var.
O'zg	Varaq	Nº hujjat	Imzo	Sana		



**2.1 - rasm.** Qiya tutqichli yumshatgich. 1-tutqich; 2-tutqich pichog‘i; 3-panja; 4-taglik (bashmak)


## 2.2. Qiya tutqichli yumshatgichning turini tanlash

Amaliyotda qiya tutqichli yumshatgichning ikki turi qullaniladi (2.2 – rasm): ishlov beriladigan dala yuzasining yuqorisida egilgan (1-turi) va dala yuzasi tagida egilgan (2-turi). Tutqichi ishlov beriladigan dala yuzasining yuqorisida egilgan (1-tur) ishchi organlarda ag‘dargichni konstruktiv jihatdan o‘rnatishning imkoniy yo‘q.



**2.2 –rasm.** Yumshatgichlar turi: a – ishlov beriladigan dala yuzasining yuqorisida egilgan (1-tur); b – ishlov beriladigan dala yuzasi tagida egilgan (2-tur)

O‘zg	Varaq	Nº hujjat	Imzo	Sana	Var.





**2.3-rasm. Qich tutqichli ishchi organlar**

Qiya tutqichli ishchi organning o‘ng va chap modellari tayyorlandi. Fizik modellashtirish metodi orqali qiya tutqichli ishchi organning asosiy parametrlari va tuproqni deformatsiyalanish xususiyatlari aniqlandi. Qiya tutqichli ishchi organ konstruksiyasining farqi xususiyati shundaki, tutqich bo‘ylama-vertikal tekislikda  $45^0$  va ko‘ndalang-vertikal tekislikda esa  $20^0$  qiya holda bajarilgan. Tutqichning bu tarzda bajarilishi tuproqni yumshatish uchun sarflanadigan energiya sarfini kamaytiradi. Qiya tutqichli ishchi organ - qiya tutqich, yumshatuvchi plastina, boshmoq, iskana, pichoq va dala taxtasidan tashkil topgan.


Taklif etilayotgan ishchi organlarning ramada joylashish sxemasi

O’zg	Varaq	Nº hujjat	Imzo	Sana	Var.



**2.4-rasm.** Lalmi yerlarga ishlov beradigan chizel plugning konstruktiv sxemasi

O'zg	Varaq	Nº hujjat	Imzo	Sana	Var.



**2.5-rasm. Qiya tutqichli ishchi organning balandligini aniqlashga doir sxema**

Ag‘dargichli qiya tutqichli ish organi balandligini qo‘yidagi formula bo‘yicha aniqlaymiz

$$H_s = H_a + H_t, \quad (1)$$

bu yerda  $H_a$  – ag‘dargichning balandligi;

$H_t$  – iskana uchi tekisligidan ag‘dargichgacha bo‘lgan masofa.


Quyidagi ifodadan qiya tutqichli ish organining balandligi  $N=43,8$  sm ekanini aniqlaymiz.

### 2.3.Qiya tutqichli ishchi organning asosiy parametrlarini asoslash

Yumshatkichning bu parametrini asoslash uchun uning ta’siri ostida tuproqni deformatsiyalanish va parchalanish jarayonlarini ko‘rib chiqamiz. Adabiyotlardan va ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlardan ma’lumki [11] ish organlari ta’siri ostida tuproqning parchalanish jarayoni yuqorida ta’kidlanganidek asosan ikki bosqichdan iborat: pona I-holatdan II-holatga o‘tganda (2.6-rasm) tuproq birinchi navbatda uning ish yuzasi ta’sirida siqiladi (eziladi) va unda hosil bo‘ladigan kuchlanishlar kritik chegaraga yetganda tuproq harakat yo‘nalishiga  $\psi$  burchak ostida joylashgan  $AVV_1A_1$  tekisligi bo‘yicha parchalanadi. Natijada tuproqdan prizma ko‘rinishidagi kesak ajraladi. Ish organing

O‘zg	Varaq	No hujjat	Imzo	Sana	Var.

keyingi siljishida bu jarayon ketma-ket takrorlanadi, ya'ni tup-



**2.6-rasm. Tuproqning ish organi ta'sirida deformatsiyalanish va parchalanish jarayonlari**

### 2.3. Qiya tutqichli yumshatkichning tortishga qarshiligini hisoblash

Yumshatkichning umumiyligi tortishiga qarshiligi uning o'zini va ustini qarshiliklarining yig'indisiga teng, ya'ni

$$R = R_{io} + R_y, \quad (2)$$

bunda  $R_{yu}$  - yumshatkichning tortishga qarshiligi;

$R_u$  - yumshatkich ustunining tortishga qarshiligi.

Yumshatkichning tortishga qarshiligini umumiyligi ko'rinishida quyidagicha ifodalash mumkin [12].

$$R_{io} = R_1 + R_2 + R_3 + R_4, \quad (3)$$

bunda  $R_1$ -tuproqni yumshatkichning tig'iga ko'rsatadigan qarshiligi;

$R_2$  - tuproqning yumshatkich ta'siri ostida

deformatsiyalanishga qarshiligi;

$R_3$  - tuproqni yumshatkich sirti bo'ylab ko'tarilishidan

hosil bo'ladigan qarshilik;

O'zg	Varaq	Nº hujjat	Imzo	Sana	Var.

$R_4$  – yumshatkich sirti bo‘ylab ko‘tarilayotgan tuproqning inersiya kuchidan hosil bo‘ladigan qarshilik.

Qiya tutqichli ishchi organning tortishga qarshilagini aniqlash uchun qo‘yidagi ifoda olindi

$$\begin{aligned}
 R = [\sigma_e]tb + \kappa[\tau_k] & \frac{[b \cos \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2) + htg(\frac{\pi}{4} - \frac{\varphi_2}{2})]h}{\cos^2 \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2)} \times \\
 & \times \left[ \sin \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2) + f \cos \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2) \cos \alpha \right] + \rho h(1 + \frac{w}{100}) \times \\
 & \times \left\{ bLgtg(\alpha + \varphi_1) + \left[ b \cos \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2) + htg(\frac{\pi}{4} - \frac{\varphi_2}{2}) \right] V^2 \times \right. \\
 & \times \left. \frac{\sin \alpha \sin(\alpha + \varphi_1)}{\cos^2 \frac{1}{2}(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2) \cos \varphi_1} \right\} + (h - L \sin \alpha) \cdot [q_o t_y (1 + fctgy) + \\
 & + fq_e (2\epsilon_y - t_y ctg\gamma)]. \quad (4)
 \end{aligned}$$

Bu ifoda tahlilidan ko‘rinib turibdiki qiya tutqichli yumshatkichning tortishga qarshiligi uning parametrlari ish sirtining shakli ( $k$ ), ishlov berish chuqurligiga ( $h$ ), tuproqning fizik-mexanik xossalari ( $[\sigma_e]$ ,  $[\tau_k]$ ,  $\varphi_1$ ,  $\varphi_2$ ,  $\rho$ ,  $w$ ,  $q_o$ ,  $q_{yo}$ ,  $f$ ) hamda agregatning harakat tezligiga bog‘liq ekan. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida  $[\sigma_e]=1,44 \cdot 10^6 \text{ Pa}$ ,  $[\tau_k]=2 \cdot 10^4 \text{ Pa}$ ,  $\varphi_1=30^\circ$ ,  $\varphi_2=40^\circ$ ,  $\rho=1480 \text{ kg/m}^3$ ,  $w=16\%$ ,  $t=0,002 \text{ m}$ ;  $b=0,18 \text{ m}$ ,  $t_y=0,05 \text{ m}$ ,  $v_u=0,2 \text{ m}$ ,  $L=0,1 \text{ m}$ ,  $f=0,5774$ ,  $\gamma=25^\circ$ ,  $q_o=1,92 \cdot 10^4 \text{ Pa}$ ,  $q_e=1,64 \cdot 10^2 \text{ Pa}$ ,  $\alpha=30^\circ$ ,  $h=40 \text{ sm}$  va  $k=0,89 \dots 0,90$  etib qabul qilinib, (4) ifoda bo‘yicha o‘tkazilgan hisoblar 1,5-2,0 m/s tezlik oralig‘ida yumshatkichning tortishga qarshiligi 5,14 kN ni tashkil etishini ko‘rsatdi.

						Var.
O’zg	Varaq	Nº hujjat	Imzo	Sana		

### III. TEKNOLOGIK QISM

#### 3.1. Lalmi yerlarga ishlov beradigan takomillashgan chizel plug yumshatkichi texnologik ish jarayonining hisobi

Tuproqni ekishga tayyorlash jarayonining hisobini maxsus ishchi organ qiya tutqichli yumshatkich misolida olib boramiz.

Lalmi yerlarni ekishga tayyorlashning texnologik ish jarayoni hisobida qisqa vaqt davomida belgilangan dalalarda ishlov berishni o‘z vaqtida olib borish uchun asosiy chora tadbirlar ishlab chiqiladi.

